

ABUL QOSIM MAHMUD IBN UMAR ZAMAXSHARIYNING “AL-MUFASSAL”
KITOBIDAGI حرف جر

Ma’qulova Madinaxon Nosirjon qizi

Oriental universiteti 2-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15555530>

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilshunosligining rivoji uchun katta hissa qo‘shgan yurtdoshimiz Mahmud Zamaxshariy, uning hayoti va ijodi asarlari asosan “Al- Mufassal” kitobi xususida yoritiladi. Asar qayerda yozilganligi qanday tartibda berilganligi ya’ni ketma-ketligi haqida fikr yuritiladi. Shuning حرف جر lar haqida ham qisqacha aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Arab tili, naxv, tilshunoslik, al-mufassal, Zamaxshariy, harf so‘z turkumi, morfologiya, bayt.

Arab tilining qonun-qoidalarini tizimi-nahv ilmini yaratgan va kamolga yetkazgan olimlar orasida bizning bobokalonimiz Mahmud Zamaxshariy muhim o‘rin egallaydi.

Alloma haqidagi ma’lumotlar asosan O‘rta asr arab manbalarida keltirilgan. Abul Qosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariy 467/1075 yil 27 rajab oyi / 19 martda Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida tavallud topgan. Sharqda allomani chuqur hurmat va mehr bilan “Ustozul arab va l-ajam” ya’ni “Arablar va g‘ayri arablar ustozini”, “Fahru Xorazm” kabi sharaflil nomlar bilan ataganlar. Bu shaxsni “mutaziliy” (aqliy ilohiyot maktabi) olimi sifatida ham tanilgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, olim o‘zining ko‘plab asarlarini Makkada yozgan va xuddi shu yerda buyuk olim sifatida e’tirof etilgan, shuhrat qozongan. Arablarda ham bunday maqol bor: “Agar Zamaxshariy bo‘lmaganida, arablar o‘z tilini bilmas edi”. Shunga ko‘ra, allomaning bunday taxsin-maqtovlarga erishishi va butun dunyoga mashhur tilshunos, grammatik olim bo‘lib tanilishiga sabab arab tili grammatikasiga bag‘ishlab yozilgan “Al-Mufassal fin nahv” asari bo‘lsa, ajab emas.¹

Bu kitob arab tilining sintaksis (naxv), morfologiya (sarf) va boshqa grammatik qoidalarini batafsil sharhlab beradi. Zamaxshariyning bu asari o‘z davrida va keyingi asrlarda arab tilini o‘rganishda asosiy manbalardan biri bo‘lib kelgan.

Asarning asosiy xususiyatlari:

1.Mavzular:

- Arab tili grammatikasi (naxv v sarf).
- So‘z turlari, fe’llar, otlar, harflar.
- Gap tuzilishi, sintaktik qoidalar.
- Qiyosiy tahlillar va misollar.

2.Tuzilishi:

Kitob mavzular bo‘yicha batafsil (“mufassal”) qismlarga bo‘lingan. Har bir bobda qoidalar aniq misollar bilan tushuntirilgan. Zamaxshariy o‘zining ilmiy chuqurligi va tizimlilikini namoyon etgan.

3.Ahamiyati:

- Arab tilshunosligining klassik asarlaridan biri hisoblanadi.

¹ <https://www.bukhari.uz/?p=15523&lang=oz>

- Islom dunyosida grammatika o'qitishda asosiy dastur bo'lib xizmat qilgan.
- Zamaxshariyning boshqa mashhur asari "Al-Kashshof" (Qur'on tafsiri) bilan birga uning ilmiy merosini shakllantirgan.

4. Sharhlar:

"Al-Mufasssal"ga keyinchalik ko'plab sharhlar yozilgan. Masalan, Ibn Hishom (14-asr) kabi olimlar bu asarga izohlar qo'shganlar.

Zamaxshariyning "Al-Mufasssal", "Grammatika bo'yicha mufasssal kitob" kabi kitoblari arab tili grammatikasining mavzulari termin sifatida ilk marta qo'llangan. "Al-Mufasssal"ning ixchamlashtirilib, muxtasar holatga keltirilgan nusxasi "Al-Unmuzaj" ("Namuna") nomi bilan ataladi².

Az-Zamaxshariyning ko'plab asarlari arab tili va grammatikasiga bag'ishlangan.

Xususan, "Al-Mufasssal" asari bir yarim yil ichida, 1121 yil Makkada yozilgan. "Al-Mufasssal" Sharqda va G'arbda arab tili va grammatikasini batafsil o'rgatuvchi yirik asar sifatida ma'lum va unda arab tili mavzulari terminlari tushunarli va to'liq holatda berilgan, misollar ila dadillangan. Ushbu asarning qo'lyozmasi Toshkentda, O'z RFA Sharqshunoslik institutida saqlanadi³.

Mufasssal asari o'zidan avval yozilgan nahv ilmining toji sanalgan Sibavayhining "al-Kitab" asariga tenglashdi, hattoki undagi masalalarning tartibi jihatidan undan o'zib ham ketdi.

Muallif bu asarini yozishda quyidagi uslublardan foydalangan:

1. Qoidalarining qisqa va lo'ndaligi; Muallif murakkab qoidalarini ham qisqa jumlar bilan yoritib bergan va qoida matnida jumalarning ko'payib ketishiga yo'l qo'ymagan. Muallif faqatgina dalil hamda misollarni ko'proq keltirishga harakat qilgan.

2. Muallif avval umumiy qoidani keltirib so'ng uni oddiymisollar bilan tushuntirgan. Misollardan so'ng ushbu qoidaga oyat, hadis, bayt yoki maqol bilan dalil keltirgan;

3. Ba'zi o'rinlarda umumiy bir qoidani keltirib so'ng undan kelib chiqadigan qoidalarini tushuntirgan;

4. Takror, ko'pirtirish hamda mavzudan chetga chiqishdan saqlangan;

5. Nahv qoidalariga oid bahs-munozaralarni zikr qilishda chegaralangan;

6. So'zning etimologiyasini aniqlashga harakat qilgan. Sababi bu usul o'rganilayotgan qoidani tushunishni osonlashtirgan;

Az-Zamaxshariy "Mufasssal" asarini boshqa nahv asarlari an'anasiga noodatiy tarzda muqaddimadan boshladi va uni to'rt qism asosida arab tili mavzu terminlari qo'llagan:

1. Birinchi qism: Ismlar va unga doir terminlar yoritib berilgan;

2. Ikkinchi qism: Fe'llar va unga doir terminlar yoritib berilgan;

3. Uchinchi qism: Harflar va unga doir terminlar yoritib berilgan;

4. To'rtinchi qism: Ism, fe'l va harflar o'rtasidagi mushtarak qoidalar haqida berilgan.

Ushbu kitobda ilk marta arabiy terminlar qo'llangan, masalan, "حرف", "حرف", "فعل", "اسم", "ضمير", "الجر".

² <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xaarita/tarix/qomusiy-olimlar-sarkardalar/Mahmud-zamaxshariy-1075-1144>

³ <https://arboblar.uz/uz/people/makhmud-az-zamakhshari>

REFERENCES

1. <https://www.bukhari.uz/?p=15523&lang=oz>
2. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xaarita/tarix/qomusiy-olimlar-sarkardalar/Mahmud-zamaxshariy-1075-1144>
3. <https://arboblar.uz/uz/people/makhmud-az-zamakhshari>